

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING  
QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

№ CD76477327

16.05.2022 yil

Paxtaobod tuman

1. Loyihaning turi Shartnoma

2. Loyihaning nomi MAHSULOT YeTKAZIB BERISH SHartnomasi

Keyingi o'rnlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan "Paxtaobod tumani Obodonlashtirish bashqarmasi" nomidan Nizom asosida ish ko'rvuchi raxbari SH.Orifjonov bir tomondan va keyingi o'rnlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladigan "PROGRESS BULDING MAX" MCHJ nomidan Nizom asosida ish ko'rvuchi D.Kazakova ikkinchi tomondan Paxtaobod tumani Marifat MFY ko'chasiga tungi yoritish chiroqlari o'rnatish ishlari uchun loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlab ijobjiy (davlat) ekspertiza xulosasi olish ob'ektiga doir mazkur shartnomasini tuzdilar.

**SHARTNOMA PREDMETI**

Bajaruvchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Andijon viloyati "Paxtaobod tumani Marifat MFY ko'chasiga tungi yoritish chiroqlari o'rnatish" bo'yicha olib boriladigan asphalt qilish ishlarini loyixa smeta xujjatlarini tayyorlab berish va ekspertiza xulosalarini olib berish ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Bajaruvchiga ishlarini bajarish uchun zarur nuqson dalolatnomasini taqdim etadi, ishlarni qabul qilish va to'loymi amalga oshirish majburiyatini oladi.  
Mazkur shartnoma bo'yicha Bajaruvchi tomonidan bajarilgan tanlov natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining qarori (2022 yil "14" maydag'i lot raqami "22110012082639" elektron bayonnomasi) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarini o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda (KKS bilan) 3500000 (uch million besh yuz ming) so'mni tashkil etadi.


Asos: O'zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to'g'risida»gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qonuni 21-bandi

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

Paxtaobod tuman Obodonlashtirish bo'limi 17.05.2022 yil

**Yuridik xizmat ko'rsatish  
markazi bosh yuriskonsulti**



R.A.Mirzaev

## 44- SHARTNOMA LOYIHASI

**Loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish to‘g‘risida**

### SHARTNOMASI

2022yil “17 “ May

Keyingi o‘rinlarda “**Buyurtmachi**” deb yuritiladigan “Paxtaobod tumani Obodonlashtirish bashqarmasi” nomidan Nizom asosida ish ko‘rvuchi raxbari **SH.Orifjonov** bir tomondan va keyingi o‘rinlarda “**Bajaruvchi**” deb yuritiladigan “ PROGRESS BULDING MAX” MCHJ nomidan Nizom asosida ish ko‘rvuchi D.Kazakova ikkinchi tomondan **Paxtaobod tumani Marifat MFY ko‘chasiga tungi yoritish chiroqlari o‘rnatish ishlari uchun loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlab ijobiy (davlat) ekspertiza xulosasi olish ob‘ektiga doir mazkur shartnomasini tuzdilar.**

#### **I. Shartnoma predmeti**

1. Bajaruvchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Andijon viloyati “**Paxtaobod tumani Marifat MFY ko‘chasiga tungi yoritish chiroqlari o‘rnatish**” bo‘yicha olib boriladigan **asfhalt qilish** ishlarni loyixa smeta xujjatlarini tayyorlab berish va ekspertiza xulosalarini olib berish ishlarni bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Bajaruvchiga ishlarni bajarish uchun zarur nuqson dalolatnomasini taqdim etadi, ishlarni qabul qilish va to‘lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

#### **II. Shartnoma bo‘yicha ishlar qiymati.**

2. Mazkur shartnoma bo‘yicha Bajaruvchi tomonidan bajarilgan tanlov natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining qarori (**2022 yil “14” maydagি lot raqami “22110012082639” elektron bayonnomasi**) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig‘imlar va ajratmalarini o‘z ichiga olgan holda joriy narxlarda (KKS siz) 3500000 (uch million besh yuz ming) so‘mni tashkil etadi.

3. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

Ish xajmi qiymati va ko‘paytirishga engib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holati sabab bo‘lganda; ishlar hajmi buyurtmachi tomonidan o‘zgartirilganda.

4. Tegishli asoslar mavjud bo‘lganda o‘zgarishlar Buyurtmachi bilan Bajaruvchi o‘rtasidagi shartnomaga qo‘srimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

#### **III. Bajaruvchi va Buyurtmachining majburiyatları**

5. Agar ishning bajarilishi davomida salbiy natijaga erishilishi aniqlangan taqdirda barcha ishlarni to‘xtatib, xolat to‘g‘risida uch kunlik muddat ichida Buyurtmachini xabardor qilish;

6. Buyurtmachidan maxfiy ma’lumotlar olgan taqdirda Bajaruvchi tomonidan ushbu ma’lumotlarni ma’lum qilmaslik va Buyurtmachining ruhsatisiz uchinchi shaxslarga bermaslik;

7. «Bajaruvchi» ishni sifatlari bajarishi, xujjatlarni barcha ilmiy texnikaviy va iqtisodiy talablarga va me’yorlarga, O‘zbekiston Respublikasi o‘rnatilgan barcha qonunlarga rioya etilgan holda bajarishga;

8. Bajaruvchi tomonidan Buyurtmachining barcha ko‘rsatmalarini bajarish va bajarilayotgan ishlar to‘g‘risida talab qilingan vaqtida axborot berish turish;

9. Bajaruvchi tomonidan smeta xujjatlarini ekspertiza organlarida ximoya qilishda ishtiroy etish.

10. Buyurtmachi ishlar bajarilishi ustidan doimiy nazorat va mazkur shartnomada qayd etilgan Bajaruvchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Bajaruvchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta’minalash;

11. Shartnoma talablariga ko‘ra avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish.

#### **IV. Ishlarni bajarish muddati**

12. Bajaruvchi mazkur shartnomaga muvofiq birinchi avans to‘lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi. Pudrat shartnomasi amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabr.

13. Tanlov natijasi bo‘yicha aniqlangan ishning davom etish vaqtini ishlar boshlangan kundan e’tiboran **8** ni tashkil etadi.

#### **V. To‘lovlar va hisob-kitoblar**

14. Buyurtmachi Bajaruvchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy qiymatining 30% miqdorida, avans o'tkazadi, bu 1 050 000 (bir million ellik ming) so'mni tashkil etadi.

15. Bajarilgan ishlar uchun shartnomaviy joriy qiymatning qolgan qismi Buyurtmachi va Bajaruvchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob ishlar tugallangandan keyin va ishlar belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin to'liq xajmda amalga oshiriladi:

16. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 30 kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Bajaruvchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bundan Buyurtmachi Bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

#### **VI. Engib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari**

17. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa engib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlар mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati engib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlari yuzaga keltirgan vaqtida mutanosib ravishda uzaytiriladi.

18. Agar engib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oyda ko'p vaqtida cho'zilsa, u holda Bajaruvchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rinishini muhokama qiladilar.

19. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

#### **VII. Tomonlarning mulkiy javobgarligi**

20. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarilmagan taqdirda aybdor tomon:

- ikkinchi tomonga etkazilgan zararni to'laydi;

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

21. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Bajaruvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatining bajarilmagan qismining 0.5 % miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 5 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lashni Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli etkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

22. SHartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortilganligi uchun Buyurtmachi Bajaruvchiga o'zi tasdiqlashi rad etgan yoki bosh tortgan summaning 0.5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

23. Bajaruvchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 5 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Bajaruvchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0.5 foiz miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 5 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Bajaruvchini ishlarini bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli etkazilgan zararlarni qoplashdan ozod etmaydi

24. SHartnomaga bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi

yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

25. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushu majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

### VIII. Nizolarni hal etish tartibi

26. SHartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek etkazilgan zararlarni qoplashda paydo buladigan nizoli masalalarini tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

### IIX. Alovida shartlar

27. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtaсидаги барча oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

28. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolangan bo'lsa haqiqiy hisoblanadi.

29. Buyurtmachi bilan Bajaruvchi o'rtaсидаги mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday kelishuvni tomonlar mazkur shartnomaga o'shimchalar yoki o'zgarishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.


30. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.


31. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan **2 nusxada tuziladi.**

### XVII. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzilari

#### Buyurtmachi:


"Obodonlashtirish boshqarmasi  
Paxtaobod shahar, Bobur MFY  
SH/X 401722860032327065200110012  
INN : 204432768  
O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi  
G'aznachiligi  
Bank:MB BB XKKM Toshkent  
H/R 23402000300100001010  
MFO: 00014  
INN : 201122919  
Indeks: 170132

Rahbar:  SH.Orifjonov

M.U. (imzo) 

#### Bajaruvchi:

"PROGRESS BULDING MAX" MCHJ  
Izboskan tumani  
Bank:Hamkorbank AT Andijon filiali  
H/R: 20 20 80 00 60 51 27 57 10 01  
MFO:00083  
INN: 306583655

Rahbar:  D.Kazakova

M.U. (imzo)

